



Gospital ta'limda boshlang'ich sinflarda qiziqarli matematika

Kurbanova Manzura Mirtaxirovna

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi

*“Meharli maktab” davlat ta'lim muassasasi umumiy o'rta ta'limni
tashkil etish bo'yicha pedagog xodim.*

Annotatsiya: Ma'lumki, bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazi qoshidagi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi “Meharli maktab” davlat ta'lim muassasasida ham boshqa ta'lim muassasalaridek darslar o'quvchilar yoshi, dunyoqarashiga qarab tashkil etiladi. Ayniqsa, matematika darslarini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli matematika darslarida interfaol usullardan foydalanish darsni jonli tashkil etishni ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda, avvalgi bilimlar va yangi axborotlar o'rtasida bog'lanish hosil qilib, berilgan materialni to'la tushunishga zamin yaratadi.

Gospital ta'limda boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitish metodikasi yakka tartibda, juft bo'lib ishlash, guruhlarda ishlash, loyihalar, rolli o'yinlar, taqdimotlar va qo'shimcha ma'lumotlar kabi metodlardan foydalanish mumkin. Bu, ayniqsa, uzoq muddatli davolanayotgan va sog'lig'i sababli ta'lim muassasasiga bora olmaydigan mehrga zor, ko'ngli yarim bolalarda motevatsiya, yangi intilishni kuchayishiga imkon beradi.

Kalit so'zlar: gospital ta'lim, gospital pedagogika, matematika, usullar, o'yin, metod.

Bugungi kunda mamlakatimizda ham ta'lim sohasiga katta e'tibor berilmoqda.

Shu bilan birga 2022yilning 5-may sanasida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan “Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi



qaroridir. Qarorga muvofiq bugun yurtimizda “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi tashkil etilib, o‘z faoliyatini olib bormoqda.

Gospital ta’lim bu – uzoq muddatli davolanayotgan va sog‘lig‘i sababli ta’lim muassasasiga bora olmayotgan bolalarni o‘qitishni tashkil etish bilan bog‘liq pedagogikaning bir qismidir. Gospital pedagogikasi pedagogikaning bir qismi bo‘lib, o‘z e’tiborini o‘quvchilarning alohida toifasiga — uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalarga qaratilgan.

Ushbu maqolada matematika boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fanlardan bo‘lib, nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy vazifalarni ham bajaradi. Matematika darslarida Vatan manfaatlari, ta’limiy tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu talablar kichik yoshdagi o‘quvchilarni matematikaning muhimligi bilan tanishtirish, matematik nutqni tarkib toptirish yordamida ularni hayotga tayyorlash va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Shuningdek, og‘zaki va yozma matematik nutqni o‘ziga xos aniq, ixcham, sodda va to‘g‘ri bayon qilish kabi sifatlar bilan rivojlantirishdir. Ayniqsa, gospital ta’limda boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitishda bolalarning ma’lum bilim va malakalarini o‘zlashtirib olish bilan birga ularda kuzatuvchanlik, idrok, ijodiy tasavvur, diqqat, xotira va tafakkur kabi imkoniyatlarini ilmiy rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

Ushbu maqolada ham ana shu jihatlar e’tiborga olingan holda qator innovatsion usullarni aynan o‘yinlar orqali tashkil etish yoritilgan.

“Ishbop o‘yin” metodi - gospital ta’limda boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitishda berilgan topshiriqlarga ko‘ra yoki o‘yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi. O‘yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining hulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o‘yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko‘ra ishtirokchilar o‘z faoliyatlarini o‘zgartirish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi.



Ishbop o'yinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo'ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat'iy belgilangan va o'yin davomida o'zgaras rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o'z maqsadlarini belgilaydilar. Ishbop o'yinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli harakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o'zining vazifasi bo'yicha qaror qabul qiladi, so'ngra guruh bilan maslahatlashadi. O'yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi.

"Ishbop o'yin" metodining afzalliklari:

- gospital ta'limda boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda ta'lim oluvchilarning bilimlarini va tajribalarini o'z qarashlari va hulqlari orqali ifoda etishga yordam beradi;
- ta'lim oluvchining boshlang'ich bilimlari va tajribalarini safarbar etish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilar o'z bilimlari doirasidan kelib chiqqan holda imkoniyatlarini namoyish etishlari uchun sharoit yaratiladi.

«Birlashgan o'zar» o'yini. Bu o'yinni ni gospital ta'limda boshlang'ich sinflarda matematika fani darslarida xohlagan mavzuni o'rganishda qo'llash mumkin. O'quvchilarni stol atrofida shunday joylashtirish kerakki, bir-birining nima yozayotganligini ko'rmasin. O'qituvchi yoki a'lochi o'quvchi boshqarib borishi mumkin. U vazifani tanlaydi. O'quvchi besh daqiqa ichida topshirilgan topshiriqni bajaradi. O'quvchilar yozishni bir vaqtda tugatishi shart.

Gospital ta'limda boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda berilgan topshiriqlarga ko'ra yoki o'yin o'ynatib dars o'tish holatlari kuzatilganda o'quvchilarda darsga qiziqishlari yanada ortganini kuzatishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rishimiz mumkin-ki, gospital maktablardagi o'quvchilarning 80 foizi o'zlarining qiziqishlarini va orzularini so'zlab bera



olgan. Mazkur tadqiqot ham gospital ta'lim va gospital maktabning bemor bolalar hvyotida naqadar muhimligini ko'rsatib beradi.

Biz ustozlar gospital maktab o'quvchilariga talabchang ustoz emas, balki hayotdan xursand, mamnun bo'lgan ustozlar bo'lishimiz kerak. Aynan shunday pedagoglar uzoq muddatli davolanayotgan va sog'lig'i sababli ta'lim muassasasiga bora olmaydigan mehrga zor, ko'ngli yarim bolalarga zavq va ishtiyoq bilan bilim olishga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar"
2. . Ibragimov X.I., Abdullaeva SH.A. Pedagogika nazariyasi.
- T., 2008-yil.
3. Internet saytlari: -ziyoNet .uz, kitob.uz, multimediya .uz.